



## TARJIMADA EKVIVALENTLIK

( Eugene Nida va Mona Baker nazaryalari)

**Xolmatova Roxatoy:** Andijon davlat chet tillar instituti ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti tarjima nazaryasi va amaliyoti 1-bosqich talabasi.

**Ilmiy rahbar:** Axmedov Azimjon, Andijon davlat chet tillar instituti, Gid hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjimada ekvivalentlik tushunchasi Eugene Nida va Mona Baker nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Muallif ekvivalentlikning formal, dinamik, grammatik, tekstual, pragmatik va madaniy turlarini qiyoslab o'rganadi hamda ularning tarjima jarayonidagi ahamiyatini yoritadi. Nida tomonidan ilgari surilgan formal va dinamik ekvivalentlik nazariyalari tarjimada shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlashning nazariy asosini tashkil etadi. Bakerning "In Other Words" asaridagi qarashlari esa ekvivalentlikni so'z, grammatik va madaniy darajalarda tahlil etib, tarjimonning madaniyatlararo muloqotdagi vositachilik rolini ochib beradi. Maqolada tarjima jarayonida ekvivalentlik faqat til jihatidan emas, balki madaniy va pragmatik omillar bilan chambarchas bog'liq ekanini ilmiy dalillar orqali asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, ekvivalentlik, Eugene Nida, Mona Baker, formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, grammatik ekvivalentlik, tekstual ekvivalentlik, pragmatik ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, tarjimashunoslik, muloqot, madaniyat, kommunikativ maqsad.

Tarjima jarayonida haqiqiy ekvivalentlik — bu so'zlarning tashqi shaklida emas, balki ularning ma'nosi va o'quvchiga yetkazadigan ta'sirida yotadi.

**Eugene Nida**



Tarjima ekvivalentligi haqida gapirar ekanmiz, biz albatta tarjima o'zi nima ekanligi, uni tarixi, kelib chiqishi va bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan insonlar haqida qisqacha ma'lumot berishimiz kerak. Tarjima -o'zi nima ? Ko'plab olimlar tarjimini bir tildagi matn yoki nutqni boshqa tilga mazmunan, maqsaddan chetlanmagan holda o'tkazish jarayoni deb atashgan. Boshqacha aytganda, tarjima - bu fikrni bir tildan ikkinchisiga to'liq, aniq va tabiiy tarzda yetkazish san'atidir. Tarjima insoniyat tarixida eng qadimiy madaniy hodisalardan biridir. U xalqlar o'rtasidagi **til, madaniyat va ilmiy bilimlar almashinuvi** uchun xizmat qilib kelgan. Tarjimaning rivojlanish bosqichlari insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Tarjima qadimiy sivilizatsiyalar davridayoq paydo bo'lgan. Misr, Bobil, Yunoniston va Rimda tarjimonlar davlat ishlarida, savdo va diplomatiyada faol ishlatilgan. Insonlar bir birlari bilan muloqot qilishni boshlashganidanoq tarjima vujudga kelgan va u savdo aloqalari, davlatlar to'qnashuvi va siyosiy muzokaralar orqali rivojlangan. Bilamizki qayerda savdo yo'llari bo'lsa o'sha yerda muloqot ko'p bo'lgan bu davrlarda tarjimonlik vazifasini savdogarlar, boshqa davlatdan olib kelingan qullar bajarishgan. Qadimgi Misrda ierogliflarni boshqa tillarga o'tkazish ishlari olib borilgan, Bobilda esa ikki tilli yozuvlar mavjud bo'lgan tabiiyki bu o'z navbatida tarjimini talab etadi. O'rta asrlarda bo'lsa tarjima ilmfan va din rivojida muhim o'rin egallaydi. Bag'doddagi "Baytul al-Hikma" (Donishmandlar uyi) IX asrda mashhur tarjima markaziga aylangan bo'lib, bu yaqqol misol bo'la oladi. XIV–XIX asrlar oralig'ida bo'lsa Yevropada tarjima faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi va bu davlar oralig'ida tarjima nazariyasi shakllana boshladi. Tarjimonlar so'zma-so'z va erkin tarjima usullari haqida ilmiy fikr yurita boshladilar. **F. Schleiermacher, J. Dryden, A. Tytler** kabi olimlar tarjimaning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. XX–XXI asrlarda tarjima texnologiya va global aloqa vositasiga aylandi. **Eugene Nida, Peter Newmark, Mona Baker** kabi tilshunoslar ekvivalentlik va pragmatik tarjima nazariyalarini rivojlantirdilar. Kompyuter dasturlari, **avtomatik tarjima**



tizimlari (masalan, Google Translate, DeepL va hozirda keng qo'llanilayotgan ChatGPT) keng tarqaldi. Bugungi kunda tarjimoni nafaqat til, balki muloqot va diplomatiya vositasi deb bilamiz.

Tarjima jarayonida so'zlarning shakliy tengligi emas, balki **mazmun, hissiyot va ta'sirning tengligi (ekvivalentlik)** muhim hisoblanadi. Shu sababli tarjimon faqat til bilimiga emas, balki **madaniyat, kontekst va uslubni tushunish qobiliyatiga** ham ega bo'lishi kerak. Shu yerda **ekvivalentlik nima?** degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javobni britaniyalik tarjimashunos **Peter Newmark** quyidagicha izohlaydi: *Tarjima - bu matn ma'nosini muallif aytmoqchi bo'lgan tarzda boshqa tilda ifodalashdir.*<sup>1</sup> Oddiy qilib aytganda, **ekvivalentlik** deganda tarjimada mazmunning to'g'ri va tabiiy tarzda saqlanishi, ya'ni asl matn nimani anglatgan bo'lsa, tarjimada ham xuddi shu ma'no va ta'sir yetkazilishi tushuniladi. Tarjimada ekvivalentlikni o'rni katta. Xoh u sinxron (og'izaki) bo'lsin, xoh yozma, ekvivalentlikdan deyarli har sohada foydalanamiz. Ekvivalentlik o'zi bir katta mavzu bo'lib uni dastlab ikkiga **Eugene Nida** 1964 yilda ikki asosiy turga ajratadi. **Formal** va **dinamik ekvivalentlik**. Buni fanga kiritgan olimimizning fikriga ko'ra **formal ekvivalentlik** matnning shakli va mazmuniga e'tibor qaratishdir, **dinamik ekvivalentlik** esa ifodaning tabiiyligi va o'quvchiga ta'siriga e'tibor berishdan iborat.<sup>2</sup> Formal ekvivalentlik - bu tarjimada asl matnga grammatik, leksik va tuzilma jihatdan imkon qadar yaqinlikni saqlash usulidir. Ya'ni tarjimon manba matndagi so'z tartibi, grammatik qurilish va iboralarni iloji boricha o'zgartirmaslikka harakat qiladi. Nidaning ta'kidlashicha, tarjima asar tarjima sifatida emas, balki maqsad tilida yaratilgan asl matndek tabiiy yangrashi lozim. Shu sababli, hozirgi tarjimashunoslikda **dinamik ekvivalentlik** tamoyili amaliy tarjimalarda, ayniqsa badiiy hamda audiovizual tarjimalarda keng qo'llanilmoqda, chunki bu yondashuv matnning tabiiyligi va o'quvchi yoki tomoshabinga ko'rsatadigan ta'sirini ta'minlaydi. Formal ekvivalentlik

<sup>1</sup> Newmark 1988

<sup>2</sup> Eugene Nida *Toward a Science of Translating* (1964)



qatorida grammatik va tekstual ekvivalentlikni aytib o'tishimiz kerak. Chunki bu uchala ekvivalentlikni turlari bevosita rasmiy, huquqiy va diniy matlarda qo'llanilinadi. **Grammatik** va **tekstual ekvivalentlik** haqida **Mona Baker** o'zining *in other words*<sup>3</sup> nomli kitobida ma'lumot berib o'tadi. Mona Bakerning ta'kidlashicha, har bir til o'ziga xos grammatik tizim va tuzilishga ega bo'lib, bu tizimlar o'rtasidagi tafovutlar tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, ayrim tillarda jins kategoriyasi (gender) grammatik jihatdan ifodalanadi, boshqa tillarda esa bunday farqlanish mavjud emas. Shuningdek, ba'zi tillarda fe'l zamonlari keng tizimni tashkil etsa, boshqalarida u nisbatan cheklangan bo'ladi. Shu sababdan tarjimonning asosiy vazifasi grammatik shaklni saqlab qolish emas, balki **mazmuniiy tenglik va kommunikativ maqsadni to'liq ifodalashdan** iboratdir. Grammatik ekvivalentlikda biz matnni grammatik kodlari bilan ishlaymiz ikki til oilalari o'rtasidagi tafovutlar yoki o'xshashliklar ham aynan bu bosqichda o'rganilinadi. Masalan: ingliz tilining matn tuzilishi S+V+O bu ingliz tilidagi eng soda gap formulasi, agar shu formuladagi gapni o'zbek tiliga tarjima qilsak S(subject) o'z vazifasini, V(verb) o'z vazifasini va O(object) ham matnda o'z ishini bajarsa bu ham grammatikal ekvivalentlikka kiradi. Yoki bo'lmasam murakkab strukturalarda ularni nomutanosibligida ekvivalentlikdan foydalanib tog'irlash ham shu bosqichga kiradi. **Tekstual ekvivalentlik.** Mona Baker konsepsiyasiga ko'ra, **tekstual ekvivalentlik** - bu tarjima jarayonida matnning mantiqiy izchilligi, grammatik bog'liqligi (cohesion) va umumiy yaxlitligini (coherence) saqlab qolish tamoyilidir.<sup>4</sup> Har bir matn o'z kommunikativ vazifasiga ega bo'lib, tarjimonning vazifasi ushbu vazifani maqsad tilida tabiiy va to'liq tarzda ifodalashdan iboratdir. Bu o'z o'zidan "cohesion" bog'liqlik izchillikni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda biz matnning mazmuniiy bog'liqligini ta'minlashga e'tibor qaratamiz. Matn izchilligini saqlash uchun har bir gap yoki fikr keyingisi bilan ma'nodosh yoki mantiqiy tarzda bog'lanib turishi zarur.

<sup>3</sup> Mona Baker *In other words: Coursebook on Translation* (1992)

<sup>4</sup> Baker, 1992, p. 218



Bunday bog‘liqlikni ta’minlashda **bog‘lovchi vositalar (cohesive devices)** muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat grammatik, balki semantik aloqani ham mustahkamlaydi. Masalan, ingliz tilida matnni bir butunlikda ushlab turish uchun “then”, “after that”, “and”, “so”, “because”, “therefore”, “that’s why”, “in addition”, “however”, “as a result” kabi bog‘lovchilar qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa ularga mos “so‘ng”, “shundan keyin”, “va”, “shuning uchun”, “sababi”, “natijada”, “shu sababli”, “bundan tashqari”, “biroq”, “demak” kabi ekvivalent shakllar ishlatiladi. Mona Baker<sup>5</sup> ta’kidlaganidek, bog‘liqlik (cohesion) faqat grammatik vositalar orqali emas, balki leksik takrorlar, sinonimlar, olmoshlar va ma’nodosh iboralar yordamida ham yuzaga keladi. Masalan, agar bir paragrafda “translator” so‘zi ishlatilgan bo‘lsa, keyingi gaplarda “he”, “the specialist” yoki “the interpreter” kabi sinonimik yoki olmosh ifodalardan foydalanish matnning mantiqiy bog‘liqligini ta’minlaydi. Shu bois, bog‘liqlik vositalarini to‘g‘ri tanlash tarjimaning tabiiyligi va o‘qish qulayligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tarjimon nafaqat grammatik jihatdan, balki mantiqiy va uslubiy uyg‘unlikni ham saqlab qolishi zarur, shunda matn bir butun sifatida qabul qilinadi va tekstual ekvivalentlik ta’minlanadi.

Endi dinamik ekvivalentlik haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, Dinamik ekvivalentlik tarjima nazariyasida matnning shaklidan ko‘ra uning mazmuni va o‘quvchiga yetkazadigan ta’siriga urg‘u beradi. Eugene Nida bu tushunchani 1964-yilda ilgari surib, uning maqsadi manba tilidagi matnni o‘quvchiga tabiiy va tushunarli tarzda yetkazish ekanligini ta’kidlaydi. U buni “reaction equivalent” deb atagan, ya’ni o‘quvchi manba matnni qanday qabul qilsa, tarjimada ham shunday ta’sir bo‘lishi kerak.<sup>6</sup> Larson esa dinamik ekvivalentlikni matnning kommunikativ vazifasini saqlash bilan bog‘liq deb tushuntiradi va tarjima qilinayotgan matn o‘z maqsadiga erishishi, qabul qiluvchi auditoriyada asl matndagi kabi ta’sir qoldirishi lozimligini qayd etadi.<sup>7</sup>

<sup>5</sup> Baker, 1992, *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.

<sup>6</sup> Nida, Eugene A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E.J. Brill.

<sup>7</sup> Larson, Mildred L. (1984). *Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence*. Lanham: University Press of America.



Shuningdek, Newmark ham dinamik ekvivalentlikni qo'llashda tarjimonning ijodiy yondashuvi va madaniy kontekstni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi, ayniqsa madaniyatga xos iboralarni tarjima qilishda so'zma-so'z ekvivalentlikdan ko'ra, mazmunni o'quvchiga yetkazish ustuvorligini bildiradi.<sup>8</sup> Shu nuqtai nazardan, dinamik ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida nafaqat grammatik va leksik moslikni, balki matnning kommunikativ samaradorligini saqlashni ham ta'minlaydi, bu usul esa ayniqsa adabiy, jurnalistik va madaniy kontekstga boy matnlarni tarjima qilishda muhim hisoblanadi. Bu borada biz yana Mona Bakerning nazaryasiga qaytamiz. Mona Baker o'zining *"In Other Words: A Coursebook on Translation"* asarida tarjima jarayonida ekvivalentlikning bir necha darajalarini ajratadi, ulardan eng muhimlaridan biri **so'z darajasidagi (word-level)** va **pragmatik (pragmatic)** ekvivalentlikdir. Uning fikricha, har bir so'zning boshqa tildagi to'liq muqobili har doim ham mavjud emas, chunki tillar o'rtasida semantik, madaniy va uslubiy tafovutlar mavjud. Shu sababli tarjimon so'zning shakliga emas, balki **kontekstdagi ma'nosiga** e'tibor qaratishi lozim. Baker shunday deydi: "The word is the smallest unit which can stand on its own and has a meaning, but words rarely have one-to-one equivalence across languages"<sup>9</sup>. Bu yondashuv tarjimada mazmuniy moslikni ta'minlashga xizmat qiladi. Baker, shuningdek, **pragmatik ekvivalentlikni** ham muhim omil sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, tarjimon so'zlarning to'g'ri ma'nosidan tashqari, matnning **kommunikativ maqsadini, nutq ohangini va o'quvchi yoki tinglovchining madaniy kontekstini** ham hisobga olishi zarur. U ta'kidlaydi: *"Pragmatik ekvivalentlik matnlarning kommunikativ vaziyatlarda qanday qo'llanilishini o'rganadi, bunda o'quvchining bilimi, kutgan natijalari va madaniy kelib chiqishi kabi omillar hisobga olinadi"*<sup>10</sup>. Masalan, ingliz tilidagi "Could you open the window?" iborasi so'rov emas,

<sup>8</sup> Newmark, Peter. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.

<sup>9</sup> Baker, 1992, p. 11

<sup>10</sup> " Baker, 1992, p. 217



balki muloyim iltimosni anglatadi, shuning uchun uni o'zbek tilida "Iltimos, derazani ochib yuborasizmi?" tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon tarjimada **madaniy va kontekstual moslikni** ta'minlaydi hamda asl matnning kommunikativ ta'sirini saqlab qoladi. Nihoyat, **madaniy ekvivalentlik (cultural equivalence)** tarjimada eng nozik bosqichlardan biridir. Har bir til o'z madaniy muhitini, qadriyatlarini va urf-odatlarini aks ettiradi, shuning uchun ayrim tushunchalar boshqa tilda aniq muqobilga ega bo'lmaydi. Baker bu borada shunday deydi: "The source and target languages may represent reality differently; translators must mediate between cultures as well as between languages".<sup>11</sup> Masalan, ingliz tilidagi "Thanksgiving" yoki "pub" so'zlariga o'zbek tilida yoki o'zbek tilidagi "to'n", "hashar" bu kabi so'zlarga to'g'ridan-to'g'ri mos so'z topish mushkul. Tarjimon bunday hollarda tavsifiy tarjima yoki madaniy ekvivalent orqali mazmunni yetkazadi. Shu yo'l bilan **madaniyatlararo muloqot** va **ma'no uyg'unligi** ta'minlaydi. Eugene Nida eas tarjima jarayonini faqat til o'zgartirish emas, balki **madaniyatlararo muloqot** sifatida talqin qilgan. U tilni madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi va tarjimonda madaniy kontekstni to'g'ri tushunish qobiliyati bo'lmasa, to'liq ekvivalentlikka erishish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Nida uchun tarjimon - bu "madaniyatlar o'rtasidagi vositachi", ya'ni u nafaqat so'zlarni, balki **urflar, qadriyatlar, ijtimoiy tushunchalar va diniy ramzlarni** ham to'g'ri talqin qilishi kerak. Madaniyatlar o'rtasidagi farqlar til tuzilmasidagi farqlarga qaraganda tarjimon uchun ancha jiddiy murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin.<sup>12</sup>

Xulosa qilib aytganda, tarjimada ekvivalentlik tushunchasi faqat til qoidalari bilan cheklanmay, madaniy, semantik va pragmatik jihatlarni ham o'zida mujassam etadi. Nida va Baker fikrlariga ko'ra, tarjimonning vazifasi so'zlarning shaklini emas, balki mazmun, ta'sir va kommunikativ maqsadning

<sup>11</sup> Baker, 1992, p. 21

<sup>12</sup> Nida, 1982, 130-bet



tengligini ta'minlashdir. Formal va dinamik ekvivalentlik nazariyalari tarjimada shakl va mazmun muvozanatini belgilab bersa, Bakerning turli ekvivalentlik turlari esa bu jarayonni chuqurroq ochib beradi. Shu bois, haqiqiy muvaffaqiyat matnni shunchaki tarjima qilishda emas, balki uni maqsad tilida tabiiy, madaniy jihatdan mos va o'quvchiga tushunarli yetkazishda namoyon bo'ladi. Ekvivalentlik nafaqat tarjimonlik mahoratini, balki madaniyatlararo muloqot san'atini ham ifodalaydi, va zamonaviy tarjimashunoslikda Nida va Baker nazariyalari uyg'unligi matnning barcha qatlamlarini samarali anglash va ifodalash imkonini beradi. *Tarjima – bu faqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazish emas, balki madaniyatlararo ko'priq qurish san'atidir.*

***Fridrix Shleyermaxer.***

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: E. J. Brill.
2. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. J. Brill.
3. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London and New York: Routledge.
4. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.
5. Larson, M. L. (1984). Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. Lanham: University Press of America.
6. Schleiermacher, F. (1813). Über die verschiedenen Methoden des Übersetzens. Berlin: Königliche Akademie der Wissenschaften.
7. Tytler, A. F. (1791). Essay on the Principles of Translation. London.
8. Dryden, J. (1680). Preface to Ovid's Epistles. In The Works of John Dryden. London.



9. Hatim, B., & Munday, J. (2004). Translation: An Advanced Resource Book. London: Routledge.
10. Bell, R. T. (1991). Translation and Translating: Theory and Practice. London: Longman.
11. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. London: Oxford University Press.
12. Shleyermaxer, F. (Friedrich Schleiermacher). Tarjima usullari haqida. (O'zbek tiliga tarjimasi – ilmiy manba sifatida).